





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10803,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,3%** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **764,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **133,4**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1038,3** mlrd. so'mni (**11,0%** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1219,8** mlrd. so'mni (**119,4%** ni) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10803,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,3** % ni tashkil etdi.



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahri va tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,9** % va yirik korxonalar hissasiga **7,1** % to'g'ri keldi.


ENG YUQORI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **29,9** % ulush bilan **3230,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bo'zatov tumani **0,4** % ulush bilan **43,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.





**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliqo'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtak'o'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **10038,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,0%** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **92,9 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qorao'zak (99,6 %), Kegeyli (99,5 %), Qonliqo'l (99,8 %), Mo'ynoq (99,5 %), Taxtak'o'pir (99,6 %), Bo'zatov (99,3 %), Nukus (99,4 %) va Shumanay tumanlarida (99,6 %) yuqori bo'lgan.





2022- yilning yanvar-dekabr oylarida nisbatan respublikaning Taxiatoş tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan Nukus shahri (112,1%), Kegeyli (116,4%), To'rtko'l (118,3%), Nukus (123,0%) va Taxtako'pir (114,8%), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10 803,0	112,3	764,7	133,4	10 038,3	111,0
Nukus shahri	3 230,8	112,1	587,4	157,9	2 643,4	105,3
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	671,3	109,8	16,3	60,2	655,0	112,1
Beruniy	997,1	109,0	42,0	172,0	955,1	107,3
Bo'zatov	43,4	113,8	0,3	74,6	43,1	114,2
Qorao'zak	289,6	110,6	1,2	99,1	288,4	110,7
Kegeyli	242,6	116,4	1,3	101,7	241,3	116,5
Qo'ng'iro't	707,1	114,3	17,2	54,3	689,9	117,5
Qonliko'l	247,1	109,5	0,6	83,8	246,5	109,6
Mo'ynoq	106,6	115,3	0,5	110,2	106,1	115,3
Nukus	198,7	123,0	1,3	111,7	197,4	123,1
Taxiatoş	235,1	109,4	23,6	63,9	211,6	118,8
Taxtako'pir	218,0	114,8	0,9	53,8	217,1	115,3
To'rtko'l	1 428,3	118,3	33,3	105,4	1 395,0	118,6
Xo'jayli	953,1	108,8	14,2	83,5	938,9	109,3
Chimboy	427,7	111,6	10,6	100,9	417,1	111,9
Shumanay	199,8	109,7	0,8	87,7	199,0	109,8
Ellikqal'a	606,7	110,2	13,0	93,1	593,7	110,6

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega tumanlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega tumanlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **133,4%** ni va **764,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblariga ko'ra, **10038,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,0%** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,9 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	18,2	81,8
Ellikqal'a	2,1	97,9
Shumanay	0,4	99,6
Chimboy	2,5	97,5
Xo'jayli	1,5	98,5
To'rtko'l	2,3	97,7
Taxtako'pir	0,4	99,6
Taxiatosh	10,0	90,0
Nukus	0,6	99,4
Mo'ynoq	0,5	99,5
Qonliko'l	0,2	99,8
Qo'ng'iro't	2,4	97,6
Kegeyli	0,5	99,5
Qorao'zak	0,4	99,6
Bo'zatov	0,7	99,3
Beruniy	4,2	95,8
Amudaryo	2,4	97,6

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,6 %), Shumanay (99,6 %), Qonliko'l (99,8 %) va Taxtako'pir (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,1% ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (18,2%), Taxiato'sh tumanida (10,0%), Beruniy (4,2%) va Chimboy (2,5%) tumanlarida kuzatildi.





**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA AHOLI
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘ZGARISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5505,0** ming so‘m (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,8% ga o‘tdi), Nukus shahri, To‘rtko‘l , Beruniy, Taxtako‘pir, Shumanay, Qorao‘zak, Chimboy va Ellikqal‘a tumanlari aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ko‘rsatkichlarida o‘sish sur‘atlari kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatkichlarni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (9737,1 ming so‘m), Qorao‘zak (5372,4 ming so‘m) va Taxtako‘pir (5478,0 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



	Hajm, ming so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 505,0	110,8
Nukus shahri	9 737,1	110,3
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	3 247,9	107,9
Beruniy	5 003,0	107,2
Bo‘zatov	1 989,9	113,8
Qorao‘zak	5 372,4	109,6
Kegeyli	3 282,9	115,6
Qo‘ng‘irot	5 289,0	113,0
Qonliko‘l	4 680,4	108,0
Mo‘ynoq	3 211,0	113,6
Nukus	3 791,7	120,9
Taxiatosh	3 098,0	108,2
Taxtako‘pir	5 478,0	116,8
To‘rtko‘l	6 410,7	116,4
Xo‘jayli	7 540,5	107,5
Chimboy	3 735,2	110,8
Shumanay	3 486,9	108,7
Ellikqal‘a	3 650,2	108,3




**UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1219,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **119,4%** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **731,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **186,7%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **487,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **77,5%**) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **731,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **487,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1219,8	119,4	731,9	186,7	487,9	77,5
Nukus shahri	160,8	79,5	96,5	118,4	64,3	53,3
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	106,1	125,0	63,6	188,0	42,4	83,1
Beruniy	87,7	99,5	52,6	173,4	35,1	60,6
Bo'zatov	28,1	148,4	16,8	215,6	11,2	101,2
Qorao'zak	49,3	113,5	29,6	197,8	19,7	69,6
Kegeyli	74,2	139,2	44,5	183,0	29,7	102,1
Qo'ng'iro't	103,2	118,8	61,9	166,8	41,3	82,9
Qonliko'l	54,5	108,1	32,7	283,3	21,8	56,2
Mo'ynoq	16,7	318,4	16,7	641,5	0,0	1,8
Nukus	68,0	257,0	40,8	632,3	27,2	135,8
Taxiatosh	35,7	107,6	21,4	127,1	14,3	87,7
Taxtako'pir	46,0	180,6	27,6	393,3	18,4	100,4
To'rtko'l	153,0	265,4	91,8	340,8	61,2	122,6
Xo'jayli	71,7	50,0	43,0	92,2	28,7	45,7
Chimboy	89,2	202,7	53,5	291,9	35,7	99,4
Shumanay	27,8	118,8	16,7	171,1	11,1	81,8
Ellikqal'a	47,8	137,0	28,7	182,5	19,1	80,5

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



22,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



449,0
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



24,3
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

71,5
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



27,1
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

32,8
mlrd. so'm



Tuxum

92,6
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

20,2
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

8,1
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

67,6
mlrd. so'm



Ziravorlar

16,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **731,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**449,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **487,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **389,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **77,9** mlrd. so'mni, otlar **10,9** mlrd. so'mni, parrandalar **4,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 227,1 mlrd. so'mga yetdi va 2021-yil yanvar-dekabr oylarida nisbatan 106,9% ni tashkil etdi.. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	227,1	106,9	0,6	9,8	226,5	109,7
Nukus shahri	94,9	79,6	0,6	97,0	94,3	79,5
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	10,1	101,5			10,1	101,5
Beruniy	7,0	93,9			7,0	93,9
Bo'zatov	0,6	115,7			0,6	115,7
Qorao'zak	6,3	124,9			6,3	124,9
Kegeyli	2,6	119,2			2,6	119,2
Qo'ng'iro't	51,6	246,1			51,6	331,4
Qonliko'l	3,5	180,1			3,5	180,1
Mo'ynoq	0,9	37,4			0,9	37,4
Nukus	2,1	199,0			2,1	199,0
Taxiatosh	5,8	162,2			5,8	162,2
Taxtako'pir	1,5	109,5			1,5	109,5
To'rtko'l	14,2	108,8			14,2	108,8
Xo'jayli	13,0	87,4			13,0	87,4
Chimboy	6,3	153,7			6,3	153,7
Shumanay	1,1	82,2			1,1	82,2
Ellikqal'a	5,6	162,2			5,6	162,2

2021- yil
yanvar-dekabr

2022- yil
yanvar-dekabr



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **227,1** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 106,9%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **227,1** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0%) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	227 103,3	100,0	227 103,3	100,0	-	-
Nukus shahri	94 873,1	41,8	94 873,1	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	10 089,2	4,4	10 089,2	100,0	-	-
Beruniy	7 018,1	3,1	7 018,1	100,0	-	-
Bo'zatov	601,4	0,3	601,4	100,0	-	-
Qorao'zak	6 302,7	2,8	6 302,7	100,0	-	-
Kegeyli	2 612,9	1,2	2 612,9	100,0	-	-
Qo'ng'iro't	51 615,9	22,7	51 615,9	100,0	-	-
Qonliko'l	3 523,4	1,6	3 523,4	100,0	-	-
Mo'ynoq	891,3	0,4	891,3	100,0	-	-
Nukus	2 115,9	0,9	2 115,9	100,0	-	-
Taxiatosh	5 813,1	2,6	5 813,1	100,0	-	-
Taxtako'pir	1 451,0	0,6	1 451,0	100,0	-	-
To'rtko'l	14 231,9	6,3	14 231,9	100,0	-	-
Xo'jayli	13 001,8	5,7	13 001,8	100,0	-	-
Chimboy	6 269,7	2,8	6 269,7	100,0	-	-
Shumanay	1 056,5	0,5	1 056,5	100,0	-	-
Ellikqal'a	5 635,4	2,5	5 635,4	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3003,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,2%** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **412,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,8** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2590,9** mlrd. so'mni (**13,8%** ga o'sdi) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

3003,5 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

412,6 mlrd. so'm, 13,7%

Mikrofirma va kichik korxonalar

2590,9 mlrd. so'm, 86,3%

Eng yuqori ulushga ega hududlar



Beruniy

To'rtko'l

Taxiatosh

Nukus shahar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Taxiatoş tumanida (371,7%.) Nukus shahrida (40,9%) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Taxtako'pir (517,1%), Qonliko'l (480,3%), va Nukus (297,5%) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 003,5	106,2	412,6	74,8	2 590,9	113,8
Nukus shahri	1 435,7	98,1	40,9	18,8	1 394,7	112,0
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	59,6	144,6	-		59,6	153,5
Beruniy	163,4	107,7	-		163,4	107,7
Bo'zatov	6,0	216,0	-		6,0	216,0
Qorao'zak	32,7	185,4	-		32,7	185,4
Kegeyli	2,6	50,0	-		2,6	50,0
Qo'ng'iro't	80,5	135,5	-		80,5	135,5
Qonliko'l	44,1	480,3	-		44,1	480,3
Mo'ynoq	60,7	31,6	-		60,7	31,6
Nukus	160,6	297,5	-		160,6	297,5
Taxiatoş	428,6	120,3	371,7	111,9	57,0	233,8
Taxtako'pir	27,7	517,1	-		27,7	517,1
To'rtko'l	235,8	102,7	-		235,8	102,7
Xo'jayli	50,2	160,8	-		50,2	160,8
Chimboy	54,4	109,3	-		54,4	109,4
Shumanay	8,1	93,2	-		8,1	93,2
Ellikqal'a	152,9	101,3	-		152,9	101,3



YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



RK Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a




Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, **2590,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,8%** ni tashkil etdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,3%** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (13,3%) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rnini pasayib bormoqda. 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **3003,5** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **3003,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.